



Madinaxon PAYZIBAYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti
E-mail: payzibayevamadina@gmail.com

Namangan davlat Chet tillar instituti dotsenti O.Dadaboyev taqrizi asosida.

XALQ ERTAKLARIDA MOTIVLAR MASALASIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Аннотация

Motivlar muammosi jahon lingvistika sohasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos ilmiy maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalari va yo'nalishlar mujassamlashdi.

Maqolada motiv tushunchasi, uning kelib chiqish genezisi o'rganilgan bo'lib, xalq ertaklarini tashkil etgan motivlar tadqiq qilingan. Adabiyotshunos olimlarning fikrlaridan namunalar keltirilib, asoslangan.

Kalit so'zlar: Motiv, ertak, motivlar genezisi, tushuncha, sinov motivi, syujet, epik asar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВОПРОС О МОТИВАХ В НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

Проблема мотивов исследуется в мировой лингвистике с помощью различных районных подходов. В странах дальнего и ближнего зарубежья сложились своеобразные научные школы, в основе которых лежали идеи и направления, отличающиеся по характеру научных позиций и концепций.

В статье изучается понятие мотива, его генезис, а также изучаются мотивы, составляющие народные сказки. Приводятся примеры, основанные на мнениях литературоведов.

Ключевые слова: Мотив, сказка, генезис мотивов, концепция, тестовый мотив, сюжет, эпическое произведение.

THEORETICAL VIEWS ON THE ISSUE OF MOTIVES IN FOLK TALES

Annotation

The problem of motives is being researched in the field of World linguistics through approaches from different district perspectives. In far and near abroad, specific scientific schools have formed, on the basis of which ideas and directions are embodied, which differ in essence in scientific positions and concepts.

In the article, the concept of motif, its genesis is studied, and the motifs that make up folk tales are observed. Examples are cited and based on the opinions of literary scholars.

Key words: Motif, fairy tale, genesis of motifs, concept, "testing" motif, plot, epic work.

Kirish. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafasat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televidenie va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilashuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq.

Motiv doirasi shaxsning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish-inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Motivning tadqiqot tarixidan kelib, unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatining ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatidagi talqinidan iborat o'ziga xos turi sifatida o'rganiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari) ni o'z ichiga oladi (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar).

Motiv tushunchasi musiqa, adabiyotshunoslik, psixologiya, biologiya, san'atshunoslik kabi ko'plab fan tarmoqlarida mavjud bo'lib har bir yo'nalishda u o'zining turli

ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida motiv atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "motiv-ko'p ma'noli so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi fransuzcha-"kuy", "ohang"; lotincha- "harakatlanmoq" so'zlarini ifodalaydi[1]. Adabiyot sohasida olib qaraydigan bo'lsak, motivning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, doston, afsona, ertaklar turli motivlarni o'z ichiga oladi: tug'ilish, farzandsizlik, evrilish, safar, sinov, tush, dushmanlik va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik, ma'naviy ta'sir etish munosabatini o'zida aks ettiradi. Motiv bilan qobiliyatning munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarish negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Motivlashgan tizimning tarkiblarini amaliyotda ro'yobga chiqaruvchi nafaqat faoliyatnigina aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki faoliyatning keyingi istiqbol rivoji yoki uning boshqa sohalar bilan qorishib ketish ehtimoli darajasini ham belgilaydi. Lekin muayyan insonning funksional imkoniyati, faoliyati va xuddi shu faoliyatning ob'ektiv tomonlarining yaqqol ro'yobga chiqishi motiv barqarorlashuvi, rivojlanish (takomillashuv) ga yo'nalganligi ham faoliyatning ob'ektiv shart-sharoitiga moslasha boradi.

Motiv tushunchasini tilshunoslik sohasida xorijiy olimlar bir necha tadqiqotlarni olib borishgan. Jumladan, O.M.Fraydenberg motivni syujetning obrazli talqini deb

izohlasa [2], V.B.Shklovskiy motivni mavzu bilan bog'liq holda ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi [3]. Yu.M.Lotman esa motiv termini o'rnida hodisa tushunchasini ishlatadi. Uning fikricha, syujetni tushunish asosida hodisa haqidagi tushuncha yotadi va hodisa syujet tuzilishidagi ajralmas kichik birliklar orqali qabul qilinadi, anglashiladi [4].

Har qanday ertakni motivlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Motiv adabiy kategoriya sifatida 20-asr boshlaridan A.N.Veselovskiy, V.Ya. Propp kabi rus folklorshunoslari ishlarida tadqiq etila boshlangan. Motiv terminining ta'rifi masalasida ko'plab qarashlar mavjud, biroq ularning hammasida ham motiv syujetni harakatga keltiruvchi unsur sifatida baholanadi. A.N.Veselovskiy motivga ta'rif berar ekan, "Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzga keltiradi", - deydi [5]. O'zbek olimlarining bu boradagi fikrlari ham asosan A.N.Veselovskiy qarashlari bilan uyg'un. B.V.Tomashevskiy esa motivni matndagi eng kichik, bo'linmas element deb ta'riflaydi. U motivni quyidagicha izohlaydi: "Mavzu tushunchasi yig'indi tushuncha bo'lib, u asardagi barcha materiallarni birlashtirib turadi. Asardagi har bir bo'limning o'z mavzusi bor, o'sha mavzularni bo'laklarga bo'lib o'rganib, bo'linmas qismigacha yetib boramiz. Ana shu bo'linmas qismi motiv deyiladi" [6].

Ertaklardagi motivlar masalasida V.Ya. Propp, B.N.Putilov va Ye. M. Meletinskiylar jiddiy tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, motiv voqealarni harakatga keltiruvchi unsur, biroq u aktiv va shu bilan birga passiv bo'lishi ham mumkin.

S.I.Ojegov hamda N.Yu.Shvedovalarning ta'kidlashicha, motiv bu biror-bir harakatga undovchi sabab va imkonidir. Bu ma'noda motiv tushunchasi voqea-hodisalarning borishi va rivoji sifatida qaraluvchi syujet tushunchasi bilan ustma-ust tushadi [7].

Tahlil va natijalar. O'zbek folklorshunosligida ham motiv tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ular dunyo folklorshunoslari qarashlari bilan uyg'un.

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulning ta'kidlashicha, epik ijodda motivlar hamisha rang-barang bo'ladi. Shuning uchun ham syujetda har bir motiv o'ziga xos «yuk»ka ega. Motivlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi, syujetdagi barqarorligi doimo ham bir xil bo'lavermaydi. Shuning uchun ularni ikki yo'nalishda olib qarash mumkin. Birinchisi, biror-bir motivning tushib qolishi yoki o'zgarishi syujetda ham tub o'zgarish bo'lishiga olib keluvchi barqaror motivlar. Bunday motivlar asar strukturasi mustahkam o'ringa ega bo'ladi. Ikkinchisi, motivlar o'zgarishi hech qanday syujetning o'zgarishiga olib kelmaydi. Bunday motivlar boshqa bir motiv bilan almashtirish mumkin bo'lgan nobarqaror bo'lgan motivlar [8].

Epik asarlarda sinov, safar, uylanish, tug'ilish, tirilish, qaytish, farzandsizlik, evrilish, ta'qiq, homiy, tush, xatar, o'lim, sarxushlik va tutqunlik, sehrlil ko'zgu, nodon xotin obrazi, malikaning o'g'irlanishi kabi motivlar mavjud.

Bitta motiv bir nechta konnotativ ma'nolarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'gay ota yoki ona, o'gay aka yoki singil motivlari ham ijobiy, ham salbiy ma'noda ishlatilishi mumkin.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, motivlar zamonlar va makonlar osha qo'shimcha yoki yangi ma'nolarni ham kasb etishi ham mumkin. O'zbek folklorshunos olimi G'.Jalolov motivlar tashkil etgan syujetlardagi o'xshashlik haqida yozar ekan, ularning interpretatsiya yo'li bilan boshqa xalqlar folkloriga kirib kelish nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, ertaklar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinmaydi, balki ularning ba'zi motivlari qabul qilinib, juda katta o'zgarishlar (interpretatsiya)ga uchraydi. Xalqlar bu ertaklar motivlarini o'z hayoti, madaniyati, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlar, orzu-istaklari zaminida qayta

ishlab chiqadi, o'z talabiga javob beradigan o'rinlarni qoldirib, ba'zilarini esa batamom qayta ishlab, original ertaklar darajasiga ko'taradi [9].

Sehrlil ertaklardagi motivlarni anglash qiyin bo'lib, sabab va oqibatlarini o'rtasidagi bog'liqlik tushunarsiz bo'ladi. Masalan, ertak qahramoni hech bir sababsiz uyni tark etib, yo'lga otlanishi mumkinki, bu ko'pchilik xolatlarda biror-bir motiv bilan asoslanmaydi. Yoki bosh qahramon ma'lum bir ta'qiqni buzadi

V.Ya.Propp motivlarni faqat syujet tizimida tadqiq etish lozimligi haqidagi fikrni ilgari suradi [10]. B.N.Putilov ham ushbu tushunchani "syujetning asosi" ekanini ta'kidlaydi [11].

N.Hotamov hamda B.Sarimsaqovlar motivni syujet tarkibidagi xalqalardan biri, deya ta'riflashadi [12]. J.Eshonqul ham syujet asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi ekani, motiv esa ana shu voqealarni harakatga keltiruvchi asosiy unsur ekanini ta'kidlaydi [13].

Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi.

Motiv masalasiga nazariy aniqlik va qarashlarning bir xilligi hanuzgacha mavjud emas, bu muammoga mavjud qarama qarshi yondashuvlar bilan mazkur tushunchaning ko'p qirrali ekanligi bog'liq. Bir tomondan, motiv xulq-atvoriga yo'naltirilgan va uni qo'llab-quvvatlovchi omillar majmui singari ko'rib chiqilsa, boshqa tomondan - organizm faolligini chaqiruvchi va uning yo'nalishini aniqlovchi uyg'unish yoki motivlar singari majmua, ya'ni inson xulq atvorini uyg'otuvchi va yo'naltiruvchi harakat majmui sifatida ko'rib chiqiladi.

Muhokama. O'zbek folklorshunosi G'.Jalolov turli xalqlar ertaklaridagi mushtarak syujetlarning vujudga kelish sabablarini quyidagi ikki jihat bilan bog'lab izohlaydi:

a) birinchidan, xalqlarning qadimdan bir-biriga yaqin hududda yoki qo'shni bo'lib yashashi, tarixiy-tadrijiy rivoji, yashash tarzi va dunyoqarashidagi yaqinlik ertaklar syujetidagi o'xshashlikni keltirib chiqaradi; b) ikkinchidan, "ertaklardagi ayrim mashhur syujetlarning bir xalqdan ikkinchisiga, bir o'lkadan boshqasiga ko'chib yurishi, o'tib turish hollari ham mavjud bo'lib, bu xalqlar orasidagi...iqtisodiy, savdo, madaniy va turli-tuman o'zaro aloqalar bilan bog'liqdir" [14].

G'.Jalolovning fikricha, "o'zbek xalq ertaklari syujetining xalqimiz hayoti, dunyoqarashi, urf-odati, milliy xususiyati va yashash sharoiti bilan chambarchas bog'liqligi uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Shuning uchun ham bu ertaklarning syujeti xalqaro ertak syujetiga monand bo'lishi, ko'chib yuruvchi syujet deb nomlanishidan qat'i nazar, ular o'zbek xalqining uzoq asrli juda qadimiy madaniyati bilan bog'liq holda vujudga kelgan [15].

K.Imomov o'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga doir bir maqolasida «bu xil ertaklar o'gaylik mavzui, an'anaviy motivlar, mungli ko'lami va lirik ohangi bilan» boshqa tip syujetlardan farqlanib turishini qayd qilgan edi [16].

P.A.Grintser yovuzlik timsoli - mifologik maxluqlarga qarshi kurash qahramonning jasoratini namoyish etuvchi bir sifat bo'lib, bu jahon episodagi asosiy motivlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [17].

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga

chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarini shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari turli motivlar zanjiridan iboratki, bir motiv

o'zidan keyin keluvchi motivlar paydo bo'lishiga turtki bo'ladi; ularni semantik va shakily jihatdan to'ldiradi. Motiv tushunchasi 20-asrdan beri ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilib, turli nazariyalar asosida talqin qilinib kelinmoqda va zamonaviy adabiyotshunoslikda ham epik asarlardagi motivlar tadqiq qilinmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati// 5jildlik. II jild- T: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" DIN,2006.
2. Фрайденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М.: Лабиринт, 1997. – С.108
3. Шкловский В.Б. О теории прозы. – М.: Федерация, 1929. – С. 27.
4. Лотман Ю.М. Об искусстве. Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 2005. – С.222.
5. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Высшая школа, 1940. С.494.
6. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект-Пресс, 1993. -334 с.
7. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Большой толковый словарь. – М., 1992. – С.340.
8. Эшонкул Жаббор. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талкини. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 2011. – Б.154.
9. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi.- Toshkent: Fan,1976. 43-bet.
10. Пропп П.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: ЛГУ, 1946. – С.8
11. Путилов Б.Н. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. С.142-143.
12. Хотамов Н., Саримсаков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.190-191.
13. Эшонкул Жаббор. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талкини. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 2011. – Б.132.
14. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. 41-бет.
15. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. 40-бет.
16. Имомов К. Ўғай киз типидagi туркум эртакларнинг айрим хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – 3-сон. – Б.33-37.
17. Гринцер П.А. Эпос древнего мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира. - М.: Наука, 1971. - С.157 - 158.